



TARBIYACHINING KASBIY KOMPETENLIGINI RIVOJLANTIRISH
YO'LLARI

Umirqulova Hilola Valijon qizi

Guliston davlat pedagogika institute maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Email: umirqulovahilola633@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ishda kelajagimiz poydevori bo'lgan yosh avlodni xalqimizga munosib bo'ladigan farzandlar qilib tarbiyalash muhim, iftixorli ishda bilan birgalikda ma'suliyatli vazifani bajarishi, pedagogika har tomonlama yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq qolaversa jamiyat oldidagi o'z burchini anglab yetishi, ta'lim va tarbiya jarayonlariga kreativ yondashishiga, o'z maxoratini doim takomillashtirib borishi haqida ma'lumot berib borilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, mehnat, tarbiyachining pedagogik kompetensiyasi, qonun, bola, o'yin faoliyati, jismoniy tarbiya, ijodiy mashg'ulot.

Аннотация: В этой работе важно воспитывать молодое поколение, которое является основой нашего будущего, быть достойным своей нации, вместе с гордым трудом выполнять ответственную задачу, осознавать свой долг перед народом и обществом за качество образования детей, творчески подходить к процессам воспитания и обучения, постоянно совершенствовать свою квалификацию.

Ключевые слова: образование, воспитание, труд педагогическая компетентность воспитателя, прова, ребёнок, игровая деятельность, физическое воспитание, творческая подготовка.

Abstract: In this work, it is important to educate the young generation, who are the foundation of our future, to be worthy of our nation, to fulfill a responsible task together with a proud work, to be aware of one's duty in front of the people and society for the quality of education of children, to have a creative approach to education and training processes, and to constantly improve one's skills.

Keywords: education, upbringing, labor, educators pedagogical competence, law, child, game activity, physical education, creative training.

KIRISH

"Kompetenlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan bo'lib psixologik nuqtai nazardan kompetenlik so'zi bu "noan'anaviy vaziyatlarni ya'ni, kutilmagan hollarda tarbiyachining o'zini qanday tutishi, tez muloqotga kirishishi raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda mutlaqo yangi yo'lga kirishishi lozim va izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egaligini" anglatadi.

Maktabgacha ta'lim taraqqiyoti samarali mexanizmlarini joriy etish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy - axloqiy va intellektual sifat jihatdan yangi



darajaga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanib kelmoqda. Shuningdek ta'lim va tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllarini qo'llashga ko'maklashadi.

Pedagogik kompetensiyalar bilim, malaka va ko'nikmalarini shu bilan birgalikda o'zlashtirilgan qadriyatlar asosida mustaqil yo'nalishga ega bo'lgan motivatsioning uyg'unlashganligini o'zida aks ettiradi. Kompetentli tarbiyachi o'zining vazifalarini sifatli va samarali bajarishi lozim. Zamonaviy kompetensiya nafaqat malaka, bilim va ko'nikmalarini balki qadriyat va axloqiy fazilatlarni o'z ichiga oladi. Har bir pedagogning temperamenti, shaxsi va tarbiyachilik uslubi boshqa tarbiyachilarning nisbatan ancha farq qiladi. Biroq bolalarga, uning ta'lim jarayoniga hamda rivojlanishiga qo'yiladigan talablar barcha tarbiyachilarda bir xil bo'lishi lozim. Tarbiyachining malakasini rivojlantirishning turlicha shakllari va usullari mavjud bo'lib, ularni bosqichma bosqich amalga oshirish mumkin. Tarbiyachilar bilan ishlashda malakani rivojlantirishga qaratilgan birnecha shakllarini ko'rsatish mumkin. Seminar - ijodiy fikrlash, ijodiy darslarni yanada rivojlantirish qolaversa innovatsion g'oyalarning shakllantirishga qaratilgan.

Tarbiyachining kasbiy kompetentlik jarayoni quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

- murakkab jarayonlarda ;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- davr talablarini chuqurroq anglaydi;
- bir - biriga zid bo'lgan ma'lumotlardan foydalanish;
- yangi talablarni chuqur anglaydi;
- yangi axborotni o'zlashtiradi.
- ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida qo'llaydi.

Shularni alohida aytib o'tmoq joizki, tarbiyachi kasbi juda ham ma'suliyatli va murakkab kasb hisoblanadi.

Tarbiyachi kasbining murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo ongning yagona sohibi bo'lgan bolalar bilan birgalikda muloqotda bo'ladilar.

Ongli va tirik jonzot esa ruhiy, aqliy shu bilan birgalikda jismoniy jihatdan ham doim rivojlanishda bo'ladi. Tarbiyachi doim muloqotda bo'lganda bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun muntazam ravishda psixologiya, tarbiya nazariyasi kabi fanlarni muntazam o'rganib o'z kasbi ustida mutassil ish olib bolishi lozim hisoblanadi. Bu barcha tarbiyachilarda pedagogik, psixologik va shu bilan birgalikda metodik tayyorgarlikni ta'minlab boradi.

Qolaversa har bir tarbiyachida liderlik hususiyati rivojlangan bo'lishi lozim.

Tarbiyachining liderlik hususiyatlari quyidagilar;

1. Maqsad qo'ya bilish lozim;
2. Bolalarga motivatsiya berishni bilishi;
3. Ma'suliyatni his qilishi lozim;
4. Muloqot ko'nikmalari rivojlangan bo'lishi kerak;
5. Barchaga namuna bo'lishi lozim;



Lider tarbiyachi - bu bolalarni boshqaruvchi emas balki ularni har tomonlama barkamol shaxslar bo'lib yetishishiga ko'maklashadi. Bunday tarbiyachi bolalarga ijobiy muhit va sharoit yaratib, ularni rivojlanishiga ko'maklashadi. Tarbiyachida liderlik aynan tug'ma bo'lishi shart emas, tarbiyachida liderlik. hususiyatlari tarbiyachi o'z ustida muntazam ishlashi natijasida yuzaga keladi.

Tarbiyachi- pedagogning ovoz paychalari rivojlangan, ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lishi kerak, uzoq vaqt tikka tura olish, ko'p yurish, epchil harakat qilish kabi fazilatlarga ega bo'lmog'i shart. Chunki kichik maktab yoshidagi bolalar o'z hususiyatlariga ko'ra tinib -tinchimaydigan, o'ta qiziquvchan, serharakat bo'ladilar. Bu sharoitda tarbiyachi ham shu darajada bo'lmog'i lozim. Tarbiyachi - pedagog o'z nutqini idora qilishi; adabiy nutq normalariga rioya qilishi, ovozning baland- pastligiga ahamiyat berishi, nutqning jonli, ifodali bo'lishiga e'tibor berishi; bolalarni charchatib qo'ymaslik maqsadida mashg'ulotdavomida ta'lim ish turlarini tez-tez o'zgartira olishi; ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib qilishi, ular bilan yaqindan aloqa o'rnatish olishi va ularga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga yordamlashishi kerak.

Tarbiyachi o'z ustida tinmay ishlamo'g'i lozim. Ayniqsa qadriyatlarimizni o'rganishga, o'zligimizni tanishimizga, qadimiy madaniyatimizni bilishga ehtiyoj katta bo'lmoqda, zero, bu na-salami bilmay turib mustaqilligimizni mustaxkamlab, buyuk davlat qurib bo'lmaydi. Shunday ekan, Maktabgacha yoshdan boshlab bolalar sharqona tarbiya ta'siriga olinmog'i, o'z qadriyatini bilmog'i lozim. Bu pedagogdan shu sohada chuqur bilimli bo'lishni talab etadi.

Tarbiyachi liderlik sifatida nafaqat guruhni boshqarishi emas balki, bolalarni ta'lim tarbiya berish jarayonini sifatli va shu bilan birga bolani shaxs sifatida rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyachi bolalarni his-tuyg'ularini tushuna olishi va har bir bolani kayfiyatini sezishi lozim hisoblanadi. Lider tarbiyachi guruhda tartibni saqlash bilan birgalikda barcha bolalar o'rtasida hamkorlikni rivojlantiradi, qisqacha qilib aytganda lider tarbiyachi har tomonlama yetuk bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda tarbiyachining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayon hisoblanadi va u zamonaviy texnologiyalarni o'rganish, shu bilan birgalikda tarbiyachi o'z ustida tinimsiz izlanishni talab qiladi. Maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy sharoitda tarbiyachining maqomi tubdan o'zgarib bormoqda va uning kasbiy hamda pedagogik kompetensiyasiga, uning kasbiy mahorat darajalari o'zgaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi.
2. Muslimov N.A, va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakillantirish texnologiyasi / Monografiya.-T. Fan va texnologiya nashriyoti, 2013
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi. Nasaf: 2000.
4. Pedagogika fanidan 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met.qo'll. U.I.Inayatov, N.A. Muslimov.- T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012.



5. Pedagogika fanidan izohli lug'at/ Tuzuvchilar J. Y. Hasanboev va boshqalar.
Toshkent: - Fantexnologiyalar nashriyoti, 2009.